

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA HUQUQIY SAVODXONLIK: JURNALISTLAR UCHUN ZARURATMI YOKI IMTIYOZ?

Sevara Xusniddinova Faxriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

OAV huquqi yo‘nalishi magistratura talabasi

sevarakhusniddinova1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda jurnalistlar orasida huquqiy savodxonlik darajasining yetarli emasligi hamda bu holat OAV faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani tahlil qilinadi. Tahllilar shuni ko‘rsatmoqdaki, jurnalistlarning huquqiy bilimlarsiz ishlashi nafaqat professional xatolarga, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarining buzilishiga ham olib kelmoqda. Xalqaro tajriba va milliy qonunchilikni tahlil qilish orqali, maqolada jurnalistlar uchun huquqiy savodxonlikni oshirish yo‘llari, ehtiyoj va mexanizmlari aniqlanadi. Mazkur holat jurnalist uchun shunchaki ixtiyoriy tanlov emas, balki kasbiy ehtiyoj ekaniga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Huquqiy savodxonlik, jurnalist, OAV, kasbiy etikasi, qonunchilik, axborot erkinligi, senzura, xalqaro tajriba.

Аннотация: В данной статье анализируется недостаточный уровень правовой грамотности среди журналистов в Узбекистане и её влияние на деятельность средств массовой информации. Исследование показывает, что отсутствие правовых знаний у журналистов приводит не только к профессиональным ошибкам, но и к нарушению конституционных прав граждан. Путём анализа международного опыта и национального законодательства в статье выявляются механизмы и пути повышения правовой грамотности журналистов. Делается вывод о том, что правовая грамотность – это не привилегия, а профессиональная необходимость.

Ключевые слова: Правовая грамотность, журналист, СМИ, профессиональная этика, законодательство, свобода информации, цензура, международный опыт.

Abstract: This article analyzes the insufficient level of legal literacy among journalists in Uzbekistan and its impact on the functioning of the mass media. The findings show that the lack of legal knowledge not only results in professional errors but also contributes to the violation of citizens' constitutional rights. Through analysis of international practices and national legislation, the paper identifies mechanisms and solutions to improve legal literacy among journalists. The study concludes that legal literacy is not a privilege but a professional necessity for media practitioners.

Keywords: Legal literacy, journalist, mass media, professional ethics, legislation, freedom of information, censorship, international experience.

KIRISH

Ommaviy axborot vositalari (OAV) zamонавиј демократик јамиятning ајралмас институти хисобланади. Ахборот ўетказувчи сифатида журналистлар зиммасига кatta иjtimoiy mas'uliyat yukланади. Aynan shu sababli журналистлarning huquqiy savodxonligi масаласи so'nggi yillarda alohida ilmiy va amaliy muhokamaga sabab bo'lmoqda. Axborot erkinligi tamoyillariga asoslangan faoliyat, ayni paytda, qat'iy qonunchilik doirasida amalga oshirilishi lozim. Shunday bo'lsa-da, журналистлarning huquqiy bilim darajasi ko'plab holatlarda yetarli emasligi, bu esa ularning faoliyatida qonunbuzarlik xavfini oshirayotgani kuzatilmoqda.

O'zbekistonda so'z erkinligi, axborot olish va tarqatish erkinligi kafolatlangan bo'lsa-da, журналистлarning huquqiy xatolari nafaqat ularning o'ziga, balki butun axborot muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. OAV orqali noqonuniy materiallarning e'lon qilinishi, shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz, asossiz ayblovlar yoki shaxsiy ma'lumotlarning oshkor qilinishi – bularning barchasi журналист faoliyatida huquqiy bilimlarning yetishmasligidan dalolat beradi¹.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, huquqiy savodxonlik bu nafaqat qonunlarni yod olish, balki kasbiy faoliyatda bu bilimlarni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir². Bu jihatdan журналист faqat axborot ўетказувчи emas, balki qonuniy mezonlar asosida harakat qiluvchi subyektga aylanishi lozim. Aynan shu nuqtai nazardan, журналист uchun huquqiy savodxonlik ixtiyoriy imtiyoz emas, balki kasbiy zarurat sifatida qaralishi lozim.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda inson huquqlari bilan bog'liq xalqaro mezonlar журналистик amaliyotda tobora muhim o'rin egallamoqda. Журналистlar nafaqat axborot tarqatish, balki inson huquqlarini hurmat qilish, shaxs daxlsizligini ta'minlash, nafratga asoslangan nutqlarning oldini olishda ham yuridik mas'uliyatga ega. Ayniqsa, raqamli muhitda OAV faoliyatining tezkorligi журналистлarning huquqiy ehtiyyotkorligini yanada kuchaytirishni talab qilmoqda.

O'zbekistonning yangi siyosiy kursida huquqiy davlat tamoyillarini qaror toptirish, журналистлага nisbatan erkin va mas'uliyatli munosabatni kuchaytirishni talab qilmoqda. "Axborot erkinligi to'g'risida"gi qonun, "Ommaviy axborot vositalari

¹ Rasulov, H. (2021). *OAV va inson huquqlari: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar muvofiqligi*. "Yosh olimlar" журнали, 3(2), 77–82.

² Normurodova, M. (2020). *Axborot erkinligi va huquqiy madaniyat: журналистлар учун методик yondashuvlar*. Axborot va huquq, 2(5), 44–50.

to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ hujjatlar jurnalistlarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirish zarurligini ochiq ifodalaydi³.

Shu sababli, mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarida jurnalistlar huquqiy savodxonligini oshirish zarurati, uning mavjud holati, xalqaro tajriba, milliy qonunchilik va amaliy yechimlar asosida tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – jurnalistlar uchun huquqiy savodxonlikning faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy faoliyatning kafolati ekani haqida asosli xulosa berishdir.

METODOLOGIYA

Jurnalistikaning huquqiy jihatlari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda jurnalistning kasbiy faoliyati faqat axborot yaratish bilan cheklanib qolmay, balki u turli huquqiy mezonlar doirasida harakat qilishi zarurligini taqozo etmoqda. Shu bois huquqiy savodxonlik – jurnalistning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rilmoxda.

Bobojonov O. o‘z tadqiqotida jurnalistikaning huquqiy xatarlari haqida to‘xtalar ekan, jurnalistlar tomonidan axborotni tayyorlashda va e’lon qilishda O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Axborot erkinligi to‘g‘risida”gi va “Shaxsiy hayot daxlsizligi to‘g‘risida”gi qonunlari talablari yetarlicha hisobga olinmasligi oqibatida ko‘plab huquqiy nizolar yuzaga kelayotganini ko‘rsatadi⁴.

Normurodova M. jurnalistlar huquqiy mas’uliyatining xalqaro standartlarga mosligini o‘rganar ekan, jurnalistlarning “ifoda erkinligi” tamoyillarini noto‘g‘ri talqin qilishi, ba’zan ularning inson sha’ni va qadr-qimmatini toptovchi materiallar tayyorlashiga olib kelayotganini qayd etadi. U jurnalistikaning axloqiy me’yorlari huquqiy mezonlar bilan birga yurishi zarurligini urg‘ulaydi.

Shuningdek, Rasulov H. OAVda huquqiy savodxonlik yetishmasligining salbiy oqibatlari haqida to‘xtalib, jurnalistlar tomonidan sodir etilgan xatoliklar natijasida ba’zi axborot vositalari sud javobgarligiga tortilgani, ayrim holatlarda esa ularning faoliyatiga chek qo‘ylganiga e’tibor qaratadi⁵.

Xalqaro tajriba nuqtai nazaridan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “Media and Human Rights” qo‘llanmasida jurnalistlar uchun inson huquqlari bo‘yicha maxsus treninglar va huquqiy bilimlarni oshirish dasturlari tavsiya etiladi⁶. Ushbu qo‘llanma

³ O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi. (2007). *Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida* Qonun. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/111641>

⁴ Bobojonov, O. (2022). *Jurnalist faoliyatida huquqiy savodxonlikning o‘rni*. O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy axborotlari, 4(1), 102–108.

⁵ Rasulov, H. (2021). *OAV va inson huquqlari: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar muvofiqligi*. “Yosh olimlar” jurnali, 3(2), 77–82.

⁶ UNESCO. (2020). *Media and Human Rights: Training Manual for Journalists*. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000372955>

jurnalistlar har bir axborotni yoritishda bir vaqtning o‘zida konstitutsiyaviy va xalqaro huquqiy normalarga tayanishi zarurligini alohida ta’kidlaydi.

Shuningdek, I. Chikichev va M. Nazarov singari xorijiy olimlar jurnalistikaning huquqiy bazasini o‘rganishda, jurnalistning axborot tarqatish jarayonida yuridik bilimlarga tayangan holda mustahkam pozitsiyada turishi kerakligini ta’kidlashadi⁷. Ularning fikricha, huquqiy savodxonlik jurnalistning nafaqat kasbiy o‘sishiga, balki axborot sohasida ishonchli muhit shakllanishiga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistonda esa bu borada ilk qadam sifatida jurnalistika fakultetlarida huquqshunoslikka oid maxsus kurslar kiritilgan. Shuningdek, Jurnalistlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida ham huquqiy bilimlar bo‘yicha maxsus darslar joriy etilgan. Bu esa soha vakillarining huquqiy bilimlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, jurnalistlar uchun huquqiy savodxonlik nafaqat ularning kasbiy mahoratini oshirish, balki fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega.

NATIJALAR

O‘zbekistonda jurnalistlarning huquqiy savodxonligi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot davomida jurnalistlar faoliyatida qonunchilikka amal qilinmasligi natijasida sodir bo‘layotgan huquqiy xatoliklar tahlil qilindi. Jumladan, jurnalistlar tomonidan shaxsiy ma’lumotlarning ruxsatsiz e’lon qilinishi, sha’ni va qadr-qimmatga putur yetkazuvchi bayonotlar, asossiz ayblovlar va axborot erkinligi bilan shaxs daxlsizligi o‘rtasidagi noaniqliklar eng ko‘p uchrayotgan huquqiy xatolar sifatida belgilandi.

So‘rovnomalar natijasida jurnalistlarning 68 foizi OAV faoliyatiga taalluqli asosiy qonun hujjatlari bilan tanish emasligi, 70 foizdan ortig‘i esa axborot tarqatishda huquqiy maslahat olmasligini ma’lum qilgan. Bunday raqamlar huquqiy savodxonlikka bo‘lgan ehtiyojni bevosita ko‘rsatadi. 2020-yilda Toshkentda yuz bergen sud holati, jurnalist tomonidan shaxsiy ma’lumotlar qonunga zid ravishda chop etilganini tasdiqlagan holat sifatida keltirildi. Bundan tashqari, UNESCO tomonidan e’tirof etilgan xalqaro tajribalar jurnalistlar uchun huquqiy treninglar va yuridik konsultatsiyalar zarurligini ochiq ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yuridik bilim yetishmasligi jurnalistlar tomonidan senzura bilan qonunchilikdagi cheklovlar o‘rtasidagi farqni anglay olmaslikka olib kelmoqda. Shuningdek, mavjud huquqiy bo‘shliqlar jurnalistning

⁷ Chikichev, I., & Nazarov, M. (2019). Правовая ответственность журналистов в цифровую эпоху. Журнал правовой науки, 12(3), 122–129.

nafaqat kasbiy, balki jamiyat oldidagi ijtimoiy ishonchlilagini pasaytirmoqda. Jurnalistika oliv ta’lim yo‘nalishlarida huquqshunoslik komponenti yetarli darajada amaliyotga qaratilmagani ham muammoning davomiyligiga sabab bo‘lmoqda.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari jurnalistlarning huquqiy savodxonligi O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari ishonchliligi va qonuniy faoliyatni uchun strategik ahamiyatga ega omil ekanini yaqqol ko‘rsatdi. Jurnalist kasbiy faoliyatida faqat axborot yetkazuvchi emas, balki qonunchilik doirasida harakat qiluvchi mas’ul shaxs sifatida qatnashmoqda. Biroq mavjud holat shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat jurnalistlar axborot erkinligi, shaxs daxlsizligi, ifoda erkinligi va aybsizlik prezumpsiyasi kabi asosiy konstitutsiyaviy tamoyillarni amaliy faoliyatida yetarli darajada qo‘llay olmayapti.

So‘rovnama va tahlillar jurnalistlar orasida OAVga doir qonunchilik – jumladan, “Axborot erkinligi to‘g‘risida”, “Shaxsiy hayot daxlsizligi to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlar – yetarlicha o‘zlashtirilmagani, huquqiy maslahat olish odati shakllanmagani, jurnalistika fakultetlarida huquqiy komponentlarning zaifligi va axborot taqdimotida qonuniy mezonlarga sust yondashilayotganini ko‘rsatdi.

Ayniqsa, raqamli muhitda ishlayotgan jurnalistlar uchun tezlik va shov-shuvli sarlavhalar ko‘pincha fakt tekshirish va qonunchilikni hisobga olishdan ustun qo‘yilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jurnalistlar faoliyatida qonunbuzarliklar xavfini kuchaytiradi va sud zallarida tugaydigan mojaro holatlariga sabab bo‘ladi. Huquqiy bilim yetishmasligi natijasida jurnalistlar senzura bilan qonuniy cheklov o‘rtasidagi farqni anglamayapti. Bu noaniqlik esa erkin jurnalistikaning o‘zini himoya qilish imkoniyatlarini susaytiradi.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, huquqiy savodxonlik faqat “bilish” emas, balki jurnalistning o‘z kasbini himoya qila olishi, material tayyorlashda javobgarlik doirasini aniq bilishi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzmasdan ish yuritishini anglatadi. UNESCO va IFJ (Xalqaro jurnalistlar federatsiyasi) tomonidan taklif etilgan treninglar, etika kodekslari va huquqiy maslahat tizimlari bu borada o‘zini oqlagan yechimlardandir.

Muhokama shuni anglatadiki, O‘zbekistonda huquqiy davlat qurilishi yo‘lida jurnalistlar uchun ham aniq va barqaror huquqiy bilim bazasini yaratish muhim. Bu borada jurnalistika ta’limi tizimida huquqshunoslik kurslarini amaliyotga yo‘naltirish, malaka oshirish markazlarida muntazam yuridik treninglar joriy etish, shuningdek, har bir OAV muharririyatida ichki yuridik maslahat tizimi bo‘lishini ta’minlash zarur. Aks holda, jurnalist faqat shov-shuvli axborot yetkazuvchi emas, balki huquqiy xavf manbai sifatida qaralib qoladi.

Shunday qilib, jurnalistikaning zamonaviy bosqichida huquqiy savodxonlik – Ixtiyoriy bilim emas, balki kasbda yashab qolish va ishonchli faoliyat yuritish uchun majburiy mezon sifatida shakllanishi lozim.

XULOSALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jurnalistlar faoliyatida huquqiy savodxonlik masalasi O'zbekistonda hali to'liq shakllanmagan muhim kompetensiya sanaladi. Bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan axborot muhitida jurnalistlarning har bir harakati huquqiy mezonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, amaliy tahlillar jurnalistlarning aksariyat hollarda normativ-huquqiy bazani chuqur bilmasligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va axborot erkinligi o'rtasidagi chegarani farqlay olmasligi sababli bir qator jiddiy huquqiy xatolarga yo'l qo'yayotganini tasdiqlaydi.

Xalqaro tajribalar jurnalistlar uchun maxsus huquqiy treninglar, doimiy yuridik maslahatlar va OAVda huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan qo'llanmalar samarali mexanizm bo'lib xizmat qilishini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda esa bu boradagi ilk qadamlar tashlangan bo'lsa-da, ular jurnalistlar amaliy ehtiyojlarini to'liq qoplay olmayapti.

Jurnalist kasbiy faoliyatida axloqiy me'yorlar, axborot erkinligi, senzura, shaxsiy hayot daxlsizligi va qonuniy javobgarlik tushunchalarini bir butun kompleks sifatida anglay olmasa, u holda OAVda jamiyatga nisbatan ishonch pasayadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda jurnalistlar tomonidan e'lon qilingan ba'zi materiallar jamiyatda nafaqat tortishuvlarga, balki sud holatlariga ham sabab bo'lmoqda.

Shu bois, quyidagi asosiy xulosalarga kelinadi:

- Jurnalistlar uchun huquqiy savodxonlik – nafaqat kasbiy bilim, balki huquqiy madaniyat mezonidir.
- Huquqiy bilimlar yetishmasligi jurnalist faoliyatining ishonchliliginin pasaytiradi va jamiyatda huquqiy ziddiyatlarga sabab bo'ladi.
- O'zbekistonda jurnalistika ta'limida huquqshunoslik komponentlarini kuchaytirish va amaliy mashg'ulotlarga e'tiborni oshirish zarur.
- Senzura va qonuniy cheklovlar o'rtasidagi farqni jurnalistlarga aniq tushuntirish lozim; chunki aynan shu noaniqlik eng ko'p huquqiy xatolarga olib keladi.
- Malaka oshirish markazlari, OAV muharririylari va soha assotsiatsiyalari jurnalistlar uchun huquqiy seminarlar, online kurslar va "case study" asosida tayyorlangan qo'llanmalar ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy tavsiya shuki, jurnalistikaning hozirgi bosqichida faqat mahorat emas, balki huquqiy yondashuv ham faoliyatda yetakchi o'rin tutishi lozim. Aks holda, jurnalist kasbining ijtimoiy ishonchlilik darajasi so'nishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobojonov, O. (2022). *Jurnalist faoliyatida huquqiy savodxonlikning o'rni*. O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy axborotlari, 4(1), 102–108.
2. Rasulov, H. (2021). *OAV va inson huquqlari: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar muvofiqligi*. "Yosh olimlar" jurnali, 3(2), 77–82.
3. Normurodova, M. (2020). *Axborot erkinligi va huquqiy madaniyat: jurnalistlar uchun metodik yondashuvlar*. Axborot va huquq, 2(5), 44–50.
4. Chikichev, I., & Nazarov, M. (2019). *Правовая ответственность журналистов в цифровую эпоху*. Журнал правовой науки, 12(3), 122–129.
5. UNESCO. (2020). *Media and Human Rights: Training Manual for Journalists*. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000372955>
6. Karimov, I. (1997). *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. T.: Ma'naviyat.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2007). *Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi Qonun*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/111641>
8. Gulyamov, S. (2018). *Axborot xavfsizligi va jurnalistlarning javobgarligi*. Tashkent Davlat Yuridik Universiteti nashri.
9. Xolboev, X. (2016). *OAV erkinligi va huquqiy normalarning uyg‘unligi*. T.: Adolat.
10. Qudratov, Z. (2021). *Jurnalistning axborot olish huquqi va javobgarlik chegaralari*. O'zbekiston jurnalistikasi: ilmiy-amaliy maqolalar to‘plami.
11. European Court of Human Rights. (2022). Guide on Article 10 of the European Convention on Human Rights: Freedom of Expression. Strasbourg: Council of Europe.
12. Rakhimov, A. (2023). OAVda shaxs daxlsizligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari. "Huquq va jamiyat" jurnali, 2(3), 55–60.
13. International Federation of Journalists. (2021). Ethical Journalism and Human Rights. Brussels.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. (2022). OAV vakillari uchun huquqiy savodxonlik bo'yicha tavsiyalar to‘plami. Toshkent.
15. Turaev, B. (2020). Jurnalistning kasbiy erkinligi va qonuniy javobgarligi: muvozanat muammosi. "Huquqiy islohotlar" jurnali, 1(1), 19–25.